

## YURTIMIZDA SAN'AT VA MADANIYAT RIVOJI

**Abdusattorova Madina**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasidagi islohotlar va bu islohotlarning jamiyatimizdagi tutgan o'rni, uning rivojlanish j'ryoni borasida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *San'at, madaniyat, yuksalish, moddiy, manaviy, ma'naviy meros, ijodkorlar, yodgorlik, ko'rik-tanlov, festival, ohang.*

O'tgan davrda mamlakatimizda ma'naviy muhitni yaxshilash va yanada yuksaltirish, madaniyat va san'at sohasini yanada taraqqiy ettirish, ijod ahlining mehnatini qadrlash va rag'batlantirish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llabquvvatlashga qaratilgan qirqdan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda, avvalo, sohani boshqarishni tubdan isloh qilish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy boshqaruv bilimlariga ega bo'lgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soha menejerlarini tayyorlash, o'qitish, malakasini oshirish va sohasining haqiqiy jonkuyari etib tarbiyalash kabi dolzarb masalalarni hal etish asosiy maqsad va ustuvor vazifa qilib belgilangan. Milliy madaniyatimiz va san'atimizni rivojlantirish maqsadida istiqloq yillarida amalga oshirilgan ishlarning mazmun-mohiyatini tanqidiy tahlil qilish, chuqur o'rganish va shu asosda boshqaruv tizimini qayta shakllantirish va takomillashtirish, bunda madaniyat va san'atning jamiyat siyosiy hayotida namoyon bo'lishi hamda xalqimiz turmush tarzida tutgan ulkan roldan oqilona foydalanish kabi o'ta muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozimligi kun tartibining asosiy masalasi sifatida ko'rib chiqildi.

San'at mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin. Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlarini, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no mazmuni deb biladigan ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflig ekanligi barchamizga ma'lum. Qadim va boy tarixga ega jonajon O'zbekistonimizda azal-azaldan madaniyat va san'at sohasida tahsinlarga sazovor ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, ajdodlarimiz bu sohalarning rivoji uchun tamal toshlarini qo'yib ketishgan. "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urfodatlar va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz muzeylarida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, menarologiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa

sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi". Mustaqillik yillaridan boshlab milliy madaniyatni rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini inovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosida ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2020-yil 26-mayda Prezidentimiz "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'рни va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorni imzoladi. Farmonning bunday nomlanishi ham milliy madaniyatga bo'lgan chinakam ehtiromning yorqin namunasidir. Farmon madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish, yangilanayotgan O'zbekiston jamiyatida, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan yangilanish, o'zgarishlar va yuksalishlar jarayonida madaniyat va san'atning o'рни hamda ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan yangi bir qadam bo'ldi. Farmonda keng ko'lamli ishlar rejalashtirilgan bo'lib, 2020-2021-yillarda madaniyat va san'atni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi hamda Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021-2025-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan, shuningdek, soha ahlining mehnatini qadrlash, san'atkorlarning haq-huquqlarini himoya qilish borasida ko'p yillardan beri yechimi kutilayotgan dolzarb masalalar hal etilgan. Xususan, 2021-yil 1-yanvardan boshlab konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash, litsenziatlarning davlat reyestrini yuritish, ularning faoliyati va erishgan natijalari haqidagi axborotlarni kiritib borish Konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portali orqali amalga oshirilishi, konsert-tomosha tadbiriga bir martalik ruxsatnoma berish uchun undiriladigan yig'imning bekor qilinishi, davlat organlari va tashkilotlarning tashabbuslari bilan o'tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari har yil tasdiqlanadigan kalendar rejaga ko'ra o'tkazilishi, konsert-tomoshalarni tashkil etishga doir barcha xizmatlar to'lov shartnomalari asosida taqdim etilishi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va boshqa davlat organlari tomonidan turli tadbirlarga san'atkorlarning jamoatchilik asosida jalb qilinishiga yo'l kuyilmasligi, kelgusida notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar nashri uchun Davlat byudjetidan mablag'lar ajratilishi, 2020-yil 1-sentabrdan boshlab to'liq jonli ijro asosida o'tkazilgan konsertlarga ijara to'lovidan 50 foiz imtiyoz berish tartibi joriy etilishi, san'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish

palatasi tashkil etilishi va buning uchun Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1 mlrd. so'm ajratilishi belgilab qo'yildi.

Kun sayin san'at va madaniyat sohasining bizning ong-u shuurimizga yanada kuchliroq kirib borayotganligi ham bu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar ko'lamining kengayishiga zamin yaratmoqda. Shu sababli ham O'zbekistonning yuksak madaniyati va san'atini xalqaro maydonda keng targ'ib qilish, xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san'at namoyondalari keng qatnashishlarini ta'minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish uchun barcha zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, balki milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilgani bilan o'lchanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Masalan, ingliz san'atshunos olimi F.R.Martin "Temuriylar singari san'at va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan",- deb yozadi. Shu ma'noda davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

"Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li - Cho'lpon: "Adabiyot yashasa, millat yashaydi!",- degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyatini va qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. Mana shunday ezgu va sharaflil ishga o'z hayotini bag'ishlagan butun ijod ahliga sihat-salomatlik, ijodiy yutuqlar, baxt va omad, muvaffaqiyatlayman". Yurtimizda xalqimiz madaniyatini yuksaltirish, san'atni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bularni dildan his qilib, teran idrok etishimiz joiz. Zotan, asrlarga tatigulik bunday ibratli ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Bizdan talab etiladigani esa milliy madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishdir, chunki milliy madaniyati yuksak xalq jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.
2. To'ychiyeva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidadagi zarsahifalar // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.
3. Haydarov A. Milliy madaniyat renessans poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2020. - B. 6
4. Mahmudov N. Xalqimiz ma'naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.
5. Nazabekov O. Yuksak e'tibor va ehtirom bizga kuch, shijoat beradi // Xalq so'zi gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 4